



**ENDIKRINOLOGIK KASALLIKLAR. ERTA TASHXIS QO'YISH,  
DAVOLASH VA OLDINI OLISH USULLARI. SAXAROZALAR  
YETISHMOVCHILIGI.**

*Husanboyeva Zulfiyaxon Jaloliddin qizi*

*Qo'qon Universiteti Andijon*

*filiali Davolash ishi*

*25-22 guruh talabasi*

Anotatsiya; Ushbu maqolada Endikrinologik kasalliklar va Disaxarid yetishmovchiligini oldini olish, erta tashxis qoyish va davolash chora – tadbirlari ilmiy va psixalogik jihatdan tahlil qilinadi. Laktoza yetishmovchiligining birinchi ikkita shakli yuzaga kelishi uning sintezini nasliy buzilishi bilan bog'liq. Yoshi kattalarda ko'proq ikkinchi shakli uchrab, ayrim ma'lumotlarga ko'ra uning ayrim belgilari yer kurrasining 50% ga yaqin aholisida uchraydi.

Kalit so'zlar. Laktoza, maltoza, saxaroza, disaxarid, endikrinologik kasalliklar, davolash.

Kirish.

Disaxarid yetishmovchili deganda tegishli ichak fermentlarini tanqisligi oqibatida laktozalar, saxarozalar, tregalozalar, maltozalar va izomaltozalarni so'rilishi hamda hazm bo'lishini buzilishi tushuniladi. Ularni klinik namoyon bo'lishi bir biriga yaqin bo'lsa ham, qaysi ovqat moddalari kasallik belgilarini keltirib chiqarishi bilan farqlanadi. Laktoza yetishmovchiligi (laktaza enteropatiyasi) uning eng ko'p uchraydigan shakli hisoblanadi. Laktoza (sut shakari) faqat kichik kemiruvchilar va odam sutida bo'ladi.

Laborator-asbobiy tekshirishlar.



Oshqozon ichak tizimini bariy ichish bilan rentgenografiyasi, EGFDS, shilliq pardadan biopsiya olish yordamida ichaklarni endoskopik tekshirishlar o'tkaziladi.

Kasallik vodorod bilan nafas yordamida o'tkaziladigan laktoza yoki uning bilan o'tkazilgan yuklamadan keyin glikemik egri sizig'I va ingichka ichak shilliq qavatida bevosita laktoza faolligini aniqlash sinamalari yordamida aniqlanadi. Amaliyotda birlamchi laktoza yetishmovchiligi ikkilamchisidan farqlash muhim ahamiyatga ega uning so'nggi shakli boshqa disaxaridlarni (saxarozalar, trigalazalar) ham yetishmovchiligi, bazan esa monosaxaridlar va aminokislotalar so'rilishining buzilishi bilan kechadi.

Asosiy qism.

Davolash. Bemorlarga sut va uning maxsulotlari iste'mol qilish taqiqlanadi. So'nggi yillarda ayrim mamlakatlarda tarkibida ham kam miqdorda laktoza saqlovchi yoki umuman saqlamaydigan sut maxsulotlari ishlab chiqish texnologiyasi yo'lga qo'yilgan. Bemorlar uni qa'bul qilganda kasallikni klinik belgilari kuzatilmaydi. Shuningdek, hozirgi vaqtda tarkibida laktoza saqlovchi qator preparatlar (lakteyit, laktraza, tilaktaza va boshqalar) yaratilgan. Ushbu ferment dorilari 250-500mg sut maxsulotlari bilan birga ichishga buyuriladi va bemorda laktoza yetishmovchiligi qayd etilmaydi. Shuningdek ikkilamchi laktoza yetishmovchiligida unga olib kelgan kasallik yoki sindromni davolash muhim ahamiyatga ega.

Saxarozalar yetishmovchiligi. Birlamchi saxaroza yetishmovchiligi nasliy kasallik hisoblanib, autosoma- retsessiv tip bilan o'tadi va aksariyat hollarda, 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda uning belgilari kuzatiladi. Yoshi kattalarda uning birlamchi shakli uchrasa ham ko'proq 30-40 yoshdan keyin surunkali ichak kasalliklari oqibatida uning shilliq qavati zararlanishi bazan ikkilamchi saxaroza yetishmovchiligiga olib keladi.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda ushbu kasallikdan aziyat chekayotgan har bir inson doimiy ravishda shifokor qa'bulida ko'rikdan o'tib turishi tavsiya etiladi. Bundan tashqari bunday kasalligi bo'lmagan shaxslar ham yilda 2 marta ko'rikdan o'tib turishlari lozim. Sog'lom insonlar ham qondagi qand miqdorini nazorat qilib turishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Abdig'affor Gadayev. Ichki kasalliklar.
2. Shagzatova. Endokrinologiya.
3. Ismailov. S.I. Endokrinologiya.
4. Urmanova Y. Endokrinologiya.